O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ
TALIM VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

# "MINATYURA"
# (MA'RUZALAR MATNI)

KAFEDRA: TASVIRIY SAN'AT VA ISHLAB
CHIQARISH ASOSLARI

TUZUVCHI: BOYMIRZAYEVA O.

JIZZAX-2006 YIL

## Annotatsiya

Ushbu ma'ruzalar matni 5140700 “Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi” bakalavriat yo’nalishi kundizgi bo’lim talabalari uchun yozilgan. Ushbu ma’ruza matnida minatyura san’ati tarixi, chet el minatyura maktablari va minatyura ishlash texnalogiyalari xaqida ma’lumotlar keng qilib yoritilgan.

Tuzuvchilar: o’qituvchi. Boymirzayeva O

Taqrizchilar: Jizzax viloyat o’qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish instituti “Amaliy san’at ” kafedrasi mudiri: dots.O’rol Maxmudov

Fizika matematika fakul’teti “Tasviriy san’at va ishlab chiqarish asoslari ” kafedrasi: katta o’qit. Xudoyberdiyev P.

Mazkur ma'ruzalar matni A. Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika institutining 2007 yil 2 mart dagi ilmiy kengashda №_6_bayonnoma bilan tasdiqlandi.

1-MA’RUZA.

MAVZU: MINIATYURA SAN'ATI. TARIXI VA UNING AXAMIYATI. ARAB MINIATYURA MAKTABI

***Darsning maqsadi***: Talabalarga axloqiy, g’oyaviy, mehnat va estetik tarbiya berish. Milliy qadriyatlarimizning, urf" odatlarimizning, san'atimizning go’zalligi, falsafiy, ruhiy va tarbiyaviy qirralarini o’rgatish.

**REJA:**

1. Miniatyura san'ati tarixi va uning ahamiyati.
2. Arab miniatyura maktabi haqida suhbat.
3. Fotimiylar sulolasi.
4. Suriya maktabi (XIII asr 1-yarmi).
5. Iroq (Bogdod) maktabi (XIII asr).

**Adabiyotlar: 8, 12, 13, 15.**

Jahon tasviriy san'at xazinasidan munosib o’rin olgan miniatyuralar Sharq xalqlarining mushtarak badiiy merosidir. U an'anaviy kitobat san'atining tarkibiy qismi bulib, qadimgi nodir ko’lyozmalarni ziynatlash bilan birga, mazkur asarlardagi ilgor insonparvarlik g’oyalari, oliyjanoblikka bulgan intilish, go’zallik tug’risidagi tasavvurni ifodalashga ham xizmat qilgan. Turli san'atkorlar - xattot, rassom, mo’zaxxib, muqovasoz, jadvalkash va boshqa alarning ijodii hamkorligida yaratilgan nodir qulyozmalar usha davr madaniy, ijtimoiy hayotini badiiy-estetik qarashlarini urganishda qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Yaqin va O’rta Sharq; madaniy markazlari bulmish Bog’dod, Tabriz, Samarqand, Buxoro, Xirot, Sheroz kabi shaxdrlarda X-X1X asrlar davomida maxsus miniatyura maktablari mavjud bulib, ba'zan yuksak darajada rivojlangan, ba'zan esa tanazzulga yo’z tutgan. Har bir rassomlik markazida o’ziga xos badiiy va ifodavii xususiyatlar yo’zaga kelishi bilan birga, ularning barchasi Sharqminiatyura san'atining ranglar sofligi va yorqinligi, chiziqlarning nafisligi va nozikligi, tasviriy uslubning dekorativ xosiyati bilan xarakterlanadi.

Miniatyura nodir ko’lyozmalar ziynatlari bulmish shams, zarvaraq unvon, xoshiya, naqsh, lavha, xotima kabi bezaklar bilan umumiy uslubiy uygunlikka ega. Bu kitob ziynatlarining dekorativ xususiyati, ular yaratilgan davr dunyoqarashi, tafakkur tarzi bilan bevosita boglikdir.

Nafis mo’jaz rasmlar asosan ilmiy, badiiy va tarixiy asarlarning ko’lyozmalarini bezashga xizmat qilgan. Rassomlar asarlarining etakchi g’oyalari va asosiy qaxramonlari obrazlarini ranglar vositasida ifodalaganlar. Shu sababli, miniatyura san'ati tarakdiyotiga Sharqning atokdi allomalari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, mutafakkir va shoirlari Abulkrsim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xisrav Dexdaviy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy hamda maihur tarixchilar Fazlullox, Rashididdin, Sharafiddin Ali Yazdiy va bophalar katta hissa qushganlar.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, keyingi vaqtda Respublikamizda Sharq miniatyurasi va kitobat san'atini o'rganuvchilar safi kengayib bormokda. Ayniqsa, bular orasida o'z maqolalari va muhim tadqiqotlari bilan N.Norqulov, I.G.Nizomiddinov, A.Murodov va boshqalar alohida ajralib turadilar.

1978 yil Sharqning buyuk miniatyurachi rassomi ustod Kamoliddin Behzod tug'ilganiga 525 yil tulishi munosabati bilan 1991 yil O'zbekistan Respublikasi Fanlar akademiyasi, Respublika Rassomlar uyushmasi va O'zbekistan Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, Xamza Xakimzoda Niyoziy nomli San'atshunoslik institut birgalikda Toshkentda ilmiy konferentsiya o'tkazdi. Shu munosabat bilan Respublika vaqtli matbuotida M.M.Xayrullaev, A.U.O'rinboev, Ch.Ahmarov va boshqalarning ulug' rassom hayoti va ijodi tug'risidagi maqolalari e'lon qilindi.

Yuqorida keltirilgan Sharq miniatyura va kitobat san'atiga oid adabiyotlar, albomlar bir qarashda bu soha juda chukur urganilgan degan yanglish xulosaga olib kelishi mumkin.

Lekin juda ko'plab nodir rasmli ko'lyozmalar turli mo'zey va kutubxonalarda saklanib, hali ilmga kiritilgani, hatto ettirilgani ham yo'q.

Sharqiy arabiston xalqlarining asosiy xizmati shunda bo'ldiki, ular keyingi avlodlarga antik grek-rim madaniyatining ko'pgina yutuqlarini saklab qolib, uni rivojlantirgan holda etkazib keldilar.

IX-XIII asrlar davomida Yaqin va O'rta Sharq; mamlakatlari Eron, Ozarbayjon, O'rta Osiyo xalqlarining uzviy aloqasi. Bog'dod, Sheroz, Tabriz, Samarqand kabi madaniy markazlar va ularning inson hayotidagi roli.

Miniatyura san'ati qulyozma va kitoblarni bezash san'atidir.

Kalila va Dimna hikoyasi.

Dioskorining "Farmologiya" kitobi haqida.

Rashiddiddinning "Jami'ut tavorix" asarlarining yaratilishi.

Fotimiylar sulolasi.

Suriya maktabi (XIII asrning I yarmi).

Iroq (Bogdod) maktabi (XIII asr).

***Darsni mustaxdsamlash uchun savollar:***

1. Miniatyura so'zini to'g'ri taxlil qilib bering?
2. Arabiston xalqlarining Jahon madaniyatiga x,issasi?
3. Arab xalq adabiyotlari haqida nimalarni bilasiz?

qushgan

4. Fotimiylar sulolasi haqida nimalarni bilasiz?
5. Suriya maktabi haqida nimalarni bilasiz?
6. Iroq (Bog'dod) maktabi haqida nimalarni bilasiz?
7. Olim Hamid Sulaymonning ijodi zHaqida nimalarni bilasiz?

*Tayanch tushunchalar:*

1. Miniatyura - mo'jaz tasvir san'ati.
2. Faktura - materiallarning tabiiy jilosi va boqha xususiyatlari.
3. Ritm - kompozitsiyaning eng kuchli xarakterli asosi hisoblanadi. U rasm kompozitsiyasini yoki ornamentlarni bir tekisda takrorlanib kelishi.
4. Fotimiylar - miniatyurachi ustalarning ism va sharifi.
5. Sulola - avlod - ajdod.

## 2-MA'RUZA.
## MAVZU: MINIATYURA SAN'ATI. TARIXI VA UNING AXAMIYATI. ERON MINIATYURA MAKTABI

***Darsning maqsadi***:Talabalarni Eron miniatyura maktabi va unda ijod kilgan ustalar bilan tanishtirish.

**REJA:**

1. Miniatyura san'ati tarixi va uning ahamiyati.
2. Eron miniatyura maktabi va unda ijod qilgan ustalar.
3. Sheroz miniatyura maktabi.
4. Isfaxon miniatyura maktabi.
5. Og'a Rizo va Rizo Abbosiylar ijodi.

**Adabiyotlar: 6, 7, 8, 9, 13, 15.**

Osiyoda eng yirik davlatlardan hisoblangan Eron davlatining geografik o'rni va tarixi.

XII asr Eron xalqlari Arablar tomonidan bosib olindi.

XX asr Eron xalqining saljukiy Turklar tomonidan bosib olinishi. Abul Qosim Firdavsiy "Shohnoma" asarining yaratilishi. Umar Xayyom ruboiylarining yaratilishi.

XIII-XIV asrlarda "Guliston" va "Buston" asarlarining yaratilishi.

Sheroz miniatyura maktabi.

Isfaxon miniatyura maktabi.

Amir Xisrav Dexlaviyning "Xamsa" asarlari.

Og'a Rizo va Rizo Abbosiy asarlari haqida.

*Tayanch tushunchalar:*

1.Sheroz - Eron miniatyura maktablari.

2. Isfaxon - Eronning markaziy shaharlarining va miniatyura maktablarining nomi.

3. «Shoxnoma» - Buyuk fors yozuvchisi A.Q.Firdavsiyning asary.

4. Oga Rizo - Eronlik minnatyurachi rassom.

5. Kompazitsiya - lotincha so'zdan olingan bulib, u tuqish, bir biriga ma'lum tartibda birlashtirishni anglatadi.

## 3-MA’RUZA
## MAVZU: OZARBAYJON MINIATYURA MAKTABI

***Darsning maqsadi***: Yakin va O’rta Sharqtasviriy san'ati tarixida Ozarbayjon miniatyura maktabi. Asosan Tabriz shaxrida XPG`-XU1 asrlar davomida o’zining kjsak tarakdiyot bosqichlariga kutarilgan Arab, Eron, Turq Xindiston miniatyura maktablari qatorida muxim o’rin tutgani xaqida talabalarga tushuncha berish.

**REJA:**

1. Sharq miniatyura maktablari.
2. Ozarbayjon miniatyura maktabi.
3. Tabriz shaxrida miniatyura san'atining gullab-yashnashi.
4. Marogi shaxridagi miniatyura san'ati ravnaqi.
5. Ardebel shaxridagi san'atning gullab yashnashi.

***Adabiyotlar: 1, 10, 13, 15***.

O’rta asrdagi diniy ta'qib va tazyikga qaramay, Ozarbayjon musavvirlari Sharq adabiyoti daxolarining ulmas asarlarini hamda qo’lyozmalarini miniatyuralar bilan bezaganlar. ayniqsz, Abul Kosim Firdavsiyning "Shoxnoma", Nizomiyning "Xamsa", Xofiz va Sa'diy Sheroziylar, Amir Xisrav Dexlaviylar, A.Jomiy, A.Navoiy ko’lyozmalariga chizilgan miniatyuralar jahon tasviriy san'atining noyob durdonalariga aylandi. Ma'lumki O’rta Shareda XII-XIII asrda Bog’dod miniatyura rassomchilik maktabi etakchilik qilgan. Ayni shu vaqtda boshka madaniyat markazlarida ham miniatyura maktablari bulgani xam shubxasizdir. XIV asrning boshida janubiy Ozarbayjondagi Tabriz miniatyura maktabi gullab yashnadi. Bu davrda mashxur tarixchi va davlat arbobi Fayzulloh Rashididdin nigorxonalarda turli tuman tarixiy asarlar ko’lyozmasi qayta-qayta kuchirilib nafis mo’jaz rasmlar bilan bezatilgan.

XIV asr oxirida yirik madaniyat markazlari Bogdod, Sheroz va Xirot shaxarlarida mustaqil miniatyura maktablari tashkil etdi. Rassomlar Ayniqsa hozirgi Afgoniston territoriyasida joylashgan usha davrda Xuroson davlatining poytaxti Xirot shaxrida XV asrda , o’z davlatining mashxur rassomlari ustoz QBehzod raxnomoligida ijod qilishardi. Yaqin va O’rta Sharqminiatyura maktablari taraadiyotiga katta ijobiy ta'sir kursatgan. XIV- XV asrlarda qadimiy madaniyat markazlaridan bulmish Buxoro, Samarkand shaxarlarida ham miniatyura maktablari bulgan. XIII asrda janubiy

Ozarbayjonning Tabriz, Marogi va Ardabel shaharlari yirik madaniyat markaziga aylandi. Chunki bu shaharlardan karvon yullari utgan edi. Bundan tashqari Ayniqsa, Tabriz shahri katta markazlashgan feodal davlatlari xususan Xulagu mutil Inxonlari 1256-1340, chaboniylar 1340-1357, jaloriylar 1360-1410, Oq Kuyunlilar Safariylar 1502-1576 xukmronligi poytaxt shahri bulganligi sababli bu erda fan va madaniyat rivojlanishiga sharoitlar yaratilgan edi. XIV asrni 2-yarmida Janubiy Ozarbayjon shahrini Sulton Uvays Jaloir egallab oldi.

U o’z shahrida xattotlik va rassomlik san'atini rivojlantirdi. XV asrda Tabriz miniatyura rassomligi qora va oq Quyunlar xukmronligi davri bilan boglik bulib ular XIV asr tasviriy san'ati an'analarini rivojlantirdi. Tabrizda yashab ijod etgan san'atkorlardan eng mashxuri Pir Said ahmed Tabriziy bulib, turk tarixchisi Alining guvoxlik berishicha u K.Behzodga ustozlik qilgan ekan. Ozarbayjon tasviriy san'atining tarixida safariylar xukmronligi davrida alohida sermaHsulligi bilan ajralib turadi. Salvakaylar sulolasining asoschisi Shoh Ismoil ustod K.Behzodni juda xurmatlab, mahsus farmonga binoan uni 1522 yili saroy kutubxonasidagi barcha kitobat san'ati axliga bosh mutasaddi qilib tayinlaydi. Bu davrda Ozarbayjon musavvirlari bilan yonma-yon mohir rassomlar K.Ali, Termizlik Mir Mansur, Sh.Isfahoniy, HA.Turbatiy kabi kuplab noyob iste'dod egalari yashab ilsod Qilganlar. Shoh Ismoil xukmronligi davrida Tabrizda nafis mo’jaz rasmlar bilan ziynatlangan nodir ko’lyozmalarga A. Firdavsiyning "Shohnoma", S.Sheroziyning "Buston", N.Ganjaviyning "Xamsa" asarlari nusxalari kiradi.

Shoh Ismoil ugli va taxt vorisi Shox Tahmosib (1524-1576) xukmronligi vaqtida Tabriz miniatyura rassomligi maktabi o’z tarakkiyotining eng yuksak va sermadsul davrini boshidan kechirdi. Chunki Shoh Taxmosib yoshligidan rassomlik va xattotlikka qiziqib, ustod Sulton Muhammadlan sabok oladi.

Shox Taxmosib saroy kutubxonasida Sulton Muxammaddan tashqari ustod Kamoliddin Bexzod, yana Mirza Ali Tabriziy, Okr Miraq Mo’zaffar Ali, Mir Said Ali, Siyovushbek va bopha musavvirlar nodir qulyozmalarini nafis, mo’jaz rasmlar bilan bezashda katnashgan.

Un ikki yashar Shox Taxmosib tomonidan kuchirilgan va turli rassomlar tomonidan un tuqqiz ajoyib miniatyuralar bilan bezatilgan Orifiyning "Guy va chavgon" qulyozmasi rasmlarda yosh xokimning dam olishi, ziyofati, aksariyatida esa chavgon uyini tas virlangan.

O.Yu.Qoziev, K.J.Kerimov, A.V.Salamzoda, N.Zamonov, J.Yu.Hasanzoda va boshqa san'atshunoslarning xizmatlari orqali Ozarbayjon va Sharqminiaryura san'atini urganishda katta xissa kushildi. Bu olimlar yaratgan ilmiy ishlar ichida O.Yu.Qo’zievning

1. Maxmud Mo’zahib - Behzodning shogirdlaridan biri.
2. Tanob - naqsh kompozitsiyasining asosiy yul chizigi.
3. Ornament - naqsh namunasi.
4. Simmetriya - grekcha so’z bulib.mos degan ma'noni anglatadi. Ulchovlarning bir-biriga mosligi, tengligi, mutanosib kelishi demakdir.
5. Asimmetriya - ulchovlarning bir-biriga qarama-qarshi, nomutanosib kelishi.

**4-MA’RUZA.**
**MAVZU: TURK MINIATYURA MAKTABI**

***Darsning maqsadi***: Turk miniatyura ustalari ijodi bilan tanishtirish.

**REJA:**

1. Turk davlati tarixi va uning geografik joylashish urni.
2. Turk miniatyura maktabining Muhammad II zamonidagi ravnaqi.
3. Garb musavvirlarining turk saroylariga tashrifi va saroy levorlari va shiftlariga ishlangan rasmlar.
4. Nigoriy ijodi va u yaratgan asarlar.

**Adabiyotlar: 5, 7, 10, 13, 15.**

Kichik Osiyo yarim orolida qadimdan xetlar eramizdan avvalgi 19 asr, Mitanni eramizdan avval 18 asr, Urartu eramizdan avvalgi 11-12 asrlar davlatlari bulgan. Sung bu erlarni Ahmoniylar, salbakiylar, makidoniyaliklar Iskandar Rim imperiyalariga qaragan. Bu ya,ol Turk xalqi madaniyatini, san'atini o’ziga xos tarzda rivojlanishini belgilab berdi. 15 asrning boshlarida yashagan Ozarbayjon olimi Abdurashid Bakuviy Turkiyaning qadimiy shaharlaridan Istambulning tarixi haqida quyidagilarni yozadi. Kustantiya shazfiga Kustantinning Sivarus ismi asos solgan. Bu Shobur Zuloklov zameni 240-270 yillar edi. Devori bir farsaxcha keladigan shoh qal'asi unta eshikli oltin qubbali shoh ibodatxonasi bor edi. Eshiklarning 4 tasi kumushdan, Ibodatxonada balandligi va eni 4 gaz keladigan taxta urnatilgan. Taxt gavhar va yoqutlar bilan bezatilgan. Ibodatxonani devorlari oltin va kumushdan naqshlangan. Ushbu kuchirma, Turkiya territoriyasida sakHanib qolgan me'morlik obidalari va tasviriy san'at asarlari qadimda bu erda yunon madaniyati ta'siri bulganidan dalolat beradi. Urxon Sultoni (1324-1359) zamonida qurilgan Bursadagi saroy Kaysar Qunyodagi sulton saroylari shu taxlitdagi sulton saroylaridir. Turkiyaning o’ziga xos san'ati XV- asrga kelib yanada rivoj topdi. Stambul shaxrida aralash usulda masjidu madrasalar, kushk va turbatlar qurilib, shahar devorlarining o’zunligi un besh dirsahga etkazildi. Vizantiya imperiyasi davrida qurilgan Sofiya ibodatxonasi masjidga aylantirildi. Uning gumbazi 65 metr, eni 32 metr bulib, oltin kumush erdamida devoriy naqsh va suratlar, qimmatbaxo toshlar bilan bezatilgan edi. Istanbuldagi tupkopu saroyi 1466 yildan durila boshladi. Bu er turk sultonlarining taxtgohi bulib keldi. Ma'lumki turk xunarmandchilik buyumlari, chiroyli badiiy bezaklari, naqshlari bilan jahon bozorida yo’qori baholanar edi. Chunonchi XIV-asrning 30 yillarida Osiyoda bulgan arab sayyohi Ibn Batuta Kone va Sivas shaharlarida tuqilgan ajoyib turk gilamlarini kurib xayratga tushgan. U yana Arzinjon mis konlarida bulib xunarmandlar undan turli tuman, gulli ro’zgor buyumlari idish va shamdonlar yasaganlarini yozadi. Dunyoning ko’pgina mo’zeylarida sakHlanayotgan bunday

buyumlar namunalari usha davr turk xunarmaadchiligining yuksak san'atidan guvoxlik beradi.
Miniatyura san'ati esa Ayniqsa Mahmed 11 (1451-1481) zamonida juda rivojlandi. U to’zdirgan "Fotix albomi" yoki Istambul albomlari nomi bilan mashxur murakka' (albomlari) dagi miniatyuralar kuprok lirik mavzuga bagishlangan. Mahmed Sulton ko’pgina san'at obidalarini nobud qilgan bulishiga qaramay, o’z saroyida kuplab musavvir va xattotlarni tuplab ularga xomiylik qila boshladi. Uning saroyida ishdovchi musavvirlarning shuxrati xatto chet el xunarmandlarining ham e'tiborini tortadi. Italiyalik musavvirlardan Konstantso da-Ferrar, Bertoldo Jiavanni, Jentele Bellinilar uning saroyiga tashrif buyurishadi. Maxmed 11 ga ayniksa, J.Bellini yoqib qoladi. U Venetsiyaga maktub yullab, Bellinining Istambulda bir oz turishi uchun ruxsat oladi. Sulton Belliniga o’z saroyini bezattiradi. Ferrar va Jiovanni Mahmedni suratini kumush medalga tushirishadi.

Saroy me'mori Sinabey ham Maxmed suratin medalga zarb qiladi. U asli 1498 yili Qaysar shaxrida tugilib, yoshligida botir jangchi bulgan. Sinobey o’zi x,aqida shunday yozgan: "Men Abdulmannon ugli bosh me'mor Sinon Sulton Salim zamonida devshirma saralovchi buyicha Istambulga keldim. Marxum Sulaymon shoh zamonida yanichar sifatida QBol va Qora Bogdod yurishlarida ishtirok etdim. Usha yili saroyda bosh me'mor etib tayinlandim, va Ollox inoyati ila kuplab imoratlarni kurdim.".
Tarixchi E.Chalaviy Iznik xunarmandlarining lagan, tovoq va ko’zalarini maqtab, butun usmoniylar davlatidagi naqshin idishlar shu erda yasalganligini yozadi, Iznik koshinlari masjid va saroylar devorini bezash uchun ishlatiladi. Iznik idishlarida hayvonlar bilan birgalikda odamlar surati ham chizilgan.

XIII-XVII asrlarda turk gilamlarining kddri boiha shaHarlarda ham ortdy. Sulton saroyida naksh va musavvirlar uchun alohida ustaxonalar bulgan.

O’sha davr miniatyuralarida O’rta Osiyo va Eron miniatyura maktablarining ba'zi san'atkorlik va shakl xususiyatlarini ham mujassamlashtirgan. O’rta Osiyo miniatyuralari kabi ranglarning
"XIII-XVII asrlar Ozarbayjon qulyozma kitoblarining badiiy ziynatlari" (Moskva, "Kniga" 1977) nomli fundamental tadqiqoti monografiyasining ilmiy axamiyati kattadir. 1983 yil sentyabr oylari boshlarida Bokuda utkazilgan xalqaro san'atshunoslik simpoziumining madsus bulimi Sharqminiatyuralarini urgatishga bagishlandi. Bu mamlakatimiz olimlarining o’zaro fikr almashishlari uchun ajoyib imkoniyat yaratdi.

Tojikiston olimlaridan L.Ayniy, L.Dodxudoeva va boshqalar Sharqminiatyura san'atini urganishga hissalarini qushmoedalar. Bu sohada aktiv faoliyat kursatayotgan M.Ashrafiy to’zgan "XVI asr miniatyuralarida Jomiy" (Moskva, "Sovetskiy xudojnik", 1966) va "X1U-XU11 asrlar miniatyuralarida fors-tojik she'riyati" (Dushanbe, "Irfon", 1974) nomli albomlar, hamda "XVI asr Eron miniatyurasi tarakdayotidan" (Dushanbe, "Donish", 1978) nomli monografiyasi mudim ahamiyatga ega.O’zbekistonda Sharqminiatyura san'atini ayrim rasmli qulyozmalar bilan tanishish, A.A.Semyonov, B.S.Sergeev, G.A.Pugachenkova, A.I.Rempel, V.G.Dolinskaya va boshqalarning maqolalaridan boshlangan. Umuman Respublikamizda Sharqtasviriy san'ati va miniatyurasini

urganishda etakchi san'atshunos, O’z.SSR fanlar . akademiyasining haqiqiy a'zosi G.APugachenkovaning xizmati alox;ida tahsinga sazovor. Olimaning kuplab (ayrim maqolalaridan tashqari, hamkorlikda yaratilgan) salmokli tadqiqotlari "O’zbekiston san'ati tarixi" (Moskva, "Iskusstvo" 1965, A.I.Rempel bilan hamkorlikda yaratilgan), "O’rta Osiyo miniatyuralari" (Moskva, "Izobrazitelnoe iskusstvo" 1979. O.Galerkina bilan hamkorlikda yaratilgan), "O’rta Osiyo san'ati ocherklari" (Moskva, "Iskusstvo", 1982, AI.Rempel bilan hamkorlikda yaratilgan) xalqimiz badiiy madaniyatini yoritishda adamiyati kattadir.

Sharqminiatyura va kitobat san'atini Respublikamizda urganishda, nashr qilishda, dunyoni eng nufo’zli mo’zey va kutubxonalaridan qidirib topishda Xamid Sulaymonning xizmati ko’zga yaqqol tashlanadi. Olim tartib bergan "Boburnoma rasmlari" (Toshkent, "Fan") uning asosiy taraqqiyot yunalishini etakchi badiiy-estetik printsiplarini shakllanishiga xizmat qiladi.

Qadimdan nodir qulyozmalar yuksak qadrlanib kelgan. Shuning uchun ham ularni yigish, urganish va san'at ixlosmandlari o’zoq vaqtdan buen shugullanib keladilar. Ammo miniatyura san'atini chuHUR urganish asosan XIX asr oxiri XX asr boshlariga to’g’ri keladi.Bu soxada yirik chet el olimlaridan F.Martin, T.Arnold, B.Robinson, B.Grey va bophalar Sharqminiatyura namunalarini ilmiy tavsifga olish, eng yaxshilarini chop ettrish, etakchi maktablar tarakdiyoti va tarixini urganish hamda targib qilishda bir qator muhim ishlarni amalga oshiradilar. Ammo ularning tadkikotlaridan, rasmlar taxushlida yo’zakiliq Shar»; xalqlari hayotini yaxshi bilmaslik kabi nuqsonlar uchrab turadi.

Sharqxalqlari tasviriy san'ati, xususan miniatyurani urganishda Sharqshunoslarning hissasi katta. Vatanimizda bu sohada ilk bor amalga oshirilgan tadqiqot yirik rus olimi, san'atshunosi V.V.Stasovning "Vizantiya, bolgar, rus, chigatoy va fors ko’lyozmalarining ba'zi miniatyuralari" nomli kitobidir. Keyingi rus olimi B.P.Denikenning "Sharqsan'ati" va "Eron rang tasviri" kitoblarida miniatyura maktablari taraqqiyotiga jiddiy e'tibor berilgan,- Shuningdeq II Jadon Urushigacha qator tadqikrtchilar S.F.Oldenburg, FA.Rozenberg, B.V.Krussman, S.I.Tyulyaev va boshqalarning Sharqminiatyura san'atiga oid alohida maqolalari e'lon qilingan edi. L.T.Gyo’zalyan va M.M.Dyakonovning "Leningrad majmualaridagi "Shohnoma" ko’lyozmalari" va "Leningrad majmualaridagi "Shohnoma" ko’lyozmalariga ishlangan Eron miniatyurasi" asarlari dam ushbu sodani urganishda muhim rol uynaydi. Ayniqsa, prof. Zaxoderning tarixchi Qozi ahmet yaratgan "Gulistoniy hunar" nomli asarini fors-tojik tilidan rus tiliga tarjima qilib, zarur ilmiy sharxlar bilan chop ettirish natijasida juda qimmatli tarixiy manba ilmga kiritildi.

Sharqshunoslarning miniatyura san'atini urganishdagi sunggi yigirma besh yil, ya'ni oltmishinchi yillardan keyingi muvaffakiyatdari salmokdidir. Bu davrlardagi B.V.Veymarn, S.I.Tyulyaev, G.I.Kostigova, O.F.Akimushkin, A.A.Ivanov, O.I.Galerkina, T.V.Greq M.Sh.Shakurov kabi moskvalik va Leningradlik olimlarning Sharqminiatyurasi va hattotlik san'atini urganishga qushma dissasi juda muhimdir.

Sunggi yillarda ittifoedosh Respublikalarda, Ozarbayjon, Tojikiston va O’zbekistan Sharqminiatyura va kitobat san'atini urganishga e'tibor kuchaydi.

Ayniqsa, bu o’rinda qardosh Ozarbayjon olimlarining ilmiy yutukdariga havas qilsa arziydi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**:

1. Sharq miniatyura maktablari va unda ijod kilgan, ustalardan kimlarni bilasiz?
2. Tabriz miniatyura maktabi haqida nimalar bilasiz?
3. Choboniylar, jaloyirlar, krra va oq quyunlilar, safariylar xukmronligi davrida fan va madaniyatning ravnaki haqida nimalar bilasiz?
4. Shoh Islom xukmdorligi haqida nimalar bilasiz?
5. Shoh Taxmosiy xukmdorligi va san'atning ravnaqi haqida nimalar bilasiz?
6. K.Behzod va uning ijodi haqida nimalar bilasiz?

**Tayanch tushunchalar:**

Kamolliddin Behzod — Sharqning benazir musavviri.

nafis jilosi, murakkab geometrik naqshlardan foydalanish nozik chiziklar ma'nodorligi kabi jihatlarni ham uchratamiz. Turk miniatyuralarida biz keskin chiziklar, jiddiy mavzu bir oz kuprok muykalam xarakatlarini kuramiz. Turk miniatyuralaridagi yorqin buyoklardan foydalanish kuprok oltin va kumush ranglardan ishlatish xosdir. 15 asr oxiri 16 asr boshlarida tasvir etilgan Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonida 15 ta miniatyura bor. 16 asr oxiriga oid bir miniatyurada Isoning farishtalar hamroxligida erga tushuvi tasvirlangan. U masjid mezanasiga kunmokda. Farishtalar rangli kiyimlarda. Devor oq, osmon oltin rangda, Iso qora turk kiyimida, boshida okH salla. 16 asrning yarmida yozilgan Sulaymon 1 shoxligiga doyr asarda Eron elchilarining qabul qilish marosimini tasvirlovchi miniatyura bor. Sulton Salim 11 davrida Nigerii saroyda bosh rassom bulib xizmat kiladi. Nigoriyning asarlari saklanib dolgan bulib, ularning barchasi turk miniatyuralarining o’ziga xos xususiyatlarini mujassam etgan. U yaratgan Sulaymon 1 portreti realistik yaratilgani bilan ajralib turadi. S.Xayriddin Barbarossa portretlari ham shular jumlasidandir.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Turk davrlari haqida nimalar bilasiz?
2. Turk amaliy san'ati haqida nimalar bilasiz?
3. Turkiyada kanday me'morchilik obidalari mavjud?
4. Usta Sinon kurgan me'morchilik obidalaridan kaysilarni bilasiz?

**Tayanch tushunchalar:**

1. A. Bakuviy - Buyuk Ozarbayjon olimi.
2. Sivarus — Kustantinning ugli, shahzoda.
3. Girix — chigal, tugun degan ma'noni anglatuvchi, geometrik nav;sh turi.

4. Muxammed II - (1451-1481) yillardagi turk sultonining ismi.
5. Bertoldo Jivanni — italiyalik musavvir.
6. J.Bellini — italyan haykaltaroshi.
7. Sinon — me'mor, arxitektroning ismi.

## 5-MA’RUZA
## MAVZU: XIND MINIATYURA MAKTABI

***Darsning maqsadi***: Boburiylar sulolasi haHida talabalarga ma'lumot berish.

**REJA:**

1. Shar q miniatyura maktablari va ularda ijod silgan ustalar.
2. Hind miniatyura maktabi.
3. Hind tasviriy san'ati juda kup boy an'analarga egaligi.
4. Boburiylar sulolasini hind miniatyura san'atiga asos solishi.
5. Boburiylar sulolasi: Xumoyun, Akbarshoh, Shoh Jaxrnni Xindiston fan va madaniyatining yuksalishida kushgan hissasi?

**Adabiyotlar: 1, 2, 3, 13, 14, 15.**

XVI-XVIII asrlarda Shimoliy Hindistonning poytaxt shaharlari Dexli, Agra va Loxurda rivoj topgan hind miniatyura maktabi o’ziga xosligi va yuksak badiiy xususiyatlari bilan Sharq miniatyura rassomlik tarixida muhim rol tutadi. Dindistonning faol madaniyati munosabatda bulganligi alohida ahamiyatga ega. Bu Movaraunnahr, Xuroson, Janubiy Ozarbayjon, Eron va Garbiy Evropa rassomligining xind miniatyurasidagi ta'siri seziladi. Hindistonga kelib yashab, hind madaniyati tarixiga o’ziga xos xissa kushganlar.Mana shunday shaxslardan tarixchi Giyosiddin Xondamir, tabib Yusuf Yusufiy, shoir Qosim Kuxiy Samarkandiy, rassomlardan Mir Sayd Ali, Abdusamad Sheroziy, Farruxbek kabi kuplab akl-zakovat egalarini sanab utish mumkin.

Hind miniatyura rassomligi o’ziga xos maktab sifatida 16 asrning ikkinchi yarmida shakllangan bulsada, hind tasviriy san'ati xususan rassomchilik juda kup asrlik boy an'analarga ega.

XVI- asrning ikkinchi yarmida Boburiylar sulolasi saroyi qoshida maxsus rassomlik ustaxonasi ochilishi, chetdan kelgan rassomlar bilan bir kdtorda maxalliy diniy markazlarda yashab ijod etib kelgan san'atkorlarning krbiliyatini keng namoyish etishga sharoit yaratdi. Hind miniatyura rassomligi 16 asrning ikkinchi yarmida Jaloliddin Muxammad Akbar davri san'at vokeligi sifatida ma'lum bulib, aslida bu rassomlik maktabiga Bobur va Xumoyun asos solgan. Hindistondagi yangi sulola asoschisi Bobur shoir, olim, xattot bulishi bilan bir qatorda rassomlikka juda kizikdan. Uning shoH asari "Boburnoma" dan ma'lumki u tabiat

manzaralarini, odamlar k_iyofasini usta rassomlardek shunday tasvirlaganki, ular kitobxon diedatini darxol o'ziga tortadi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.**

1. Hindiston davlatining joylashgan geografik urni va uning tarixi.
2. Hindistonda din va madaniyat xaqida nimalarni bilasiz?
3.Miniatyura san'atining rivojlanish sababi?
4. Boburiylar sulolasi vakillaridan kimlarni bilasiz?
5. Tojmaxal va uning qurilish tarixi. (x Boburnoma qaysi miniatyura ustalari tomonidan bezalgan?

**Tayanch tushunchasi:**

1. Boburiylar sulolasi'. Boburning farzandlari, uni ishini davomchilari.
2. Xumoyun - HINDISTON miniatyura maktabining asoschisi.
3. Akbarshoh -Xumoyunning ugli.
4. Shoh Jahon - Akbarshohning ugli.
5. Toj - Mahal - me'morchilik yodgorligi.
6. Mumtoz-mahal - shoh Jahonning rafiqasi. hindistonaik malika.
7.Giyosiddin Xondamir - tarixchi olim.

## 6-MA'RUZA

## MAVZU: MINIATYURA FANIDA ISHLATILADIGAN ASBOB-USKUNALAR VA ULARDAN TO'G'RI FOYDALANISH.

***<u>Darsning maqsadi</u>***: Miniatyura fanida ishlatiladigan xom-ashyolar, asbob-uskunalar va ulardan to'g'ri foydalanish qoidalarini urgatish.

**REJA:**

1. Miniatyura san'ati tarixi
2. K.Behzod va uning nakdoshlik maktabi.
3. Qiniatyurada ishlatiladigan xom-ashyolar
4. Maxalliy materiallarga miniatyura ishlash
5. Quticha yasash texnologiyasi
6. Qutichani miniatyura bilan bezash.
7. Qutichani laklash va pardozlash.

**Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15.**

Xar bir fanning o'ziga xos ukuv quroli bulgani kabi miniatyura fani uchun ham, turli hildagi uquv qurollari adabiyotlar, turli tuman xom ashelar keraq
Birinchi bulib adabiyotlarga murojaat qiladigan bulsaq HSulaymonov Nizomiyning "Xamsa" siga ishlangan miniatyuralari

"Amir Xisrav Dexlaviy asarlariga ishlangan rasmlar", Navoiyning "Xamsa" siga ishlangan rasmlar, "Boburnoma" asariga ishlangan rasmlar. Bu

adabiyotlarning hammasi talabaga miniatyura fanini tez tasavvur xrsil v;ilib fanni o’zlashtirishda yordam beradi.

O’quv vurollari: Sharqminiatyurasini ishlash uchun alohida uquv qurollari mavjud. Qadimda Shareda miniatyura asarlari asosan kitob bezash uchun ishlatilgan. Misol uchun, Firdavsiyning "Shohnoma", Xayyomning ruboiylari, Nizomiy, Dexlaviy, Navoiyning "Xamsa" asarlari. Bu xildagi adabiyot durdonalarini Kamoliddin BeHzod, Maxmud Mo’zaxib, Oga Rizo, Rizo Abbosiy, Mux,ammad Zamon kabi miniatyura ustalari tomonidan kitoblar bezalgan. Bu adabiyotlarning qogozlari maxsus tayyorlangan bulib, ular xattotlik
va mo’jaz rasmlar ishlash uchun juda kulay bulgan. Undan taphari turli xildagi kilqalamlar, moy qalamlari ustalar tomonidan yasalgan. Turli usimlik elimlaridan, tuproklardan, pigmentlar tayyorlangan.

Miniatyura ishlashning boqha turi- ya'ni mahalliy materiallarga ishlash. Mahalliy materiallarning bir qancha turi mavjud: nosqoboq, chilim qoboq, tur qovoq, turli tuman tomosha qovoklar. Bu materiallarga mo’jaz rasmlar ishlash uchun ularni o’zlari turli texnologiyalar asosida maxsus tayyorgarlik bosqichidan utkaziladi. Turli ustalar krvoklarni turli yullar bilan tayyorlaydilar. Kimdir krvoklar ichiga yog kuysa, kimdir mol yoki kuy gungiga 1-3 oylab kumib, krvoklar yo’zasida turli shakllar x,osil qiladi va tayyor bulgan yo’zaga pigmentlar, temperalar yordamida miniatyura rasmlari ishlanadi. Rasmning sunggi bosqichi tugallangandan sung qovokuuar darhol maxsus loklarda laklanadi. Lok maxsus kuritma pechlarda kuritiladi.

Lokli miniatyura san'ati: miniatyuraning eng murakkab turi x,isoblanib, san'atning bu turi uchun maxsus ukuv kurollari va turli tuman xom-ashyolar kullanadi. Bu bulimda asosan kuticha yasash texnologiyasi va unga ketadigan xom-ashyolar haqida ma'lumotlar beriladi. Quticha yasash uchun kerakli ukuv kurollari ruyxati:

1. Qalam.
2. Lineyka .
3. O’chirg’ich.
4. Vatmin.
5. Xromizatsiya.

Preslash uchun moslamalar: PVA kleyi, skapel, qum qog’ozlar, tosh qog’ozlarg, guash bo’yoqlar, muy qalamlar, laklar, v;urilish pechlari va yana bir qancha xom-ashyolar va elektrotexnika buyumlari mavjud.

Elektr pechlari va dazmollardan foydalanilayotganda, texnika xavfsizligiga qattiq rioya qilinishi zarur.

**Mavzuni mustazhkamlash uchun savollar:**

1. Koler nima?
2. Pigment nima?
3. Tempera nima?
4. Lakli miniatyura uchun quticha kanday tayyorlanadi?
5. Mahalliy materiallarga miniatyura v;anday bosqichlarda ishlanadi ?

6. O’zbekistonlik miniatyura san'ati ustalaridan kimlarni bilasiz?
7. Amaliy san'atni rivoji uchun Prezidentning qanday qarori mavjud?

**Tayanch tushunchalari.**

1. Pane - mashe - krgozlarni bir-biriga elimlab qalinlik xosil kilish.
2. Texnologiya - fanning bosqichma-boskich to’g’ri bajariladigan krnun va kridalari.
3. Xromizatsiya - karton qalin krgoz..
4. Pigment — ranglarning asosi. upa, kukun(poroshok) qismi.
5. Kontrast - ranglar karama-karshi.

## ADABIYOTLAR RO’YXATI


1. X.Sulaymon, F.Sulaymonova Nizomiy «Xamsa»siga ishlangan rasmlar. Toshkent «Fan» nashriyoti. 1985 yil.
2. Alisher Navoiy -«Xamsa»siga ishlangan rasmlar. Toshkent «Fan» nashriyoti. 1987 yil.
3. HSulaymon, F.Sulaymonova Amir Xusrof Dexlaviy asarlariga ishlangan rasmlar. Toshkent «Fan» nashriyoti. 1983 yil.
4. HSulaymon, F.Sulaymonova Alisher Navoiy asarlari badiiy qulyozmalari albomi. Toshkent 1981 yil.
5. HSulaymon Boburnoma rasmlari. 1970 yil.
6. Ibragimova Z.I. Navoiy siymosining ko’zgusi. Rofur Rulom Adabiyot va san'at nashriyoti. 1982 yil.
7. A.Madaliev, N.Normatov Sharq miniatyura maktablari. Tosh. 1979 yil.
8. G.Putachenkova O’rta Osiyo miniatyuralari. Moskva. 1979 yil.
9. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning nakdoshlik maktabi. Toshkent. 1977 yil.
10. Bulatov S.S., Shobaratov P.P. Muallimlar oliygoh uchun miniatyura san'ati fanidan dastur. Toshkent. 1995 yil.
11. G.Pugachenkova «Shedevrq Sredney Azii» Toshkent, 1985 yil.
12. Ch.Axmarov R.Rulom adabiyot san'at nashriyoti.1985Y.
13. Musavvir va kitob Toshkent 1987 yil.
14. Usta Mumin A.Nikolaev R.Rulom nomli adabiyot va san'at nashri.1980 i.
15. A.Kamarov Texnologiya materialov stenopisie Moskva 1989.
16. Xitoy miniatyura san'ati Pekin 1990 yil.
17. Usmonov A. O’zbekiston naqshu nigorlari 1987 yil.
18. Uta Morro Yapon miniatyura maktabi. 1969 yil.
19. Sh.K.Shoyokubov O’zbekistonning hozirgi rangtasvir miniatyura san'ati. (Musavvir) 1996 yil.
20. Abul Qosim Firdavsiy «Shoxnoma» Toshkent 1972 yil.